

ISSN k181-9505
Doi Journal 10.k6739/k181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №2 (33)



ISSN k181-9505

Doi Journal 10.k6739/k181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan

Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT

XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ХИЗНЬ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №2 (33)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.

Журнал выходит 4 раза в год.

The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi Abdildina, R.J. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Mamedzade, I.R. – Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor Skarantino, L.M. – DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. – Rossiya FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. – Qozog‘iston FA akademigi, falsafa fanlari doktori, professor Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. – Rossiya FA Falsafa instituti professori, falsafa fanlari doktori (Rossiya) Muassislar: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O‘zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers MCHJ Elc.uz Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.	Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Bosh muharrir o‘rinbosari: Aslanova, R. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas’ul muharrir: Muhamedova, Z.M. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tahrir hay’ati: Allahyarova, T., – f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., – s.f.d., professor (Qozog‘iston) Abasov, A.S., –f.f.d., professor (Azarbayjon) Axamer, G – f.f.d., professor (Avstriya) Buzarinejad, Y. – f.f.d, professor (Eron) Bilalov, M.I., – f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Gezalov, A.A., – f.f.n., professor (Rossiya) Kerimov, E. – f.f.d., professor (Azarbayjon) Kurmangalieva, G. K., – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Kurbonova, L.A. – f.f.d.DSc, dotsent (O‘zbekiston) Lazarevich, A.A. – f.f.d., professor (Belorus) Olatunji, Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Paxruddinov, Sh.I. – s.f.d., professor (O‘zbekiston) Pardayev, S. – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston) Sergeev, M.Y., – professor (AQSh) Sagikizi, A. – f.f.d., professor (Qozog‘iston) Tulenova, G. J – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Tesdelen, Vefa, – f.f.d., professor (Turkiya) Tyukmaeva A.M. – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O‘zbekiston) Xudoydodzoda, F.B., – f.f.d., professor (Tojikiston) Xudoyberganov, R. – f.f.d.DSc, (O‘zbekiston) Mahmadizoda, N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. H – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya) Urmanbetova, J.K., – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Chjan Baychun, – f.f.d., professor (Xitoy) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg‘iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. – (O‘zbekiston) Po‘latov A. – (O‘zbekiston)
--	--

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjonovich	MEDIASAVODXONLIK VA MA'NAVİY REFLEKSIYANING YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY BILISH MEXANIZMLARI SIFATIDAGI AHAMIYATI	9-20
Sapayev Valisher Odilbek o'g'li	RAQAMLI GEOSIYOSIY MAKONNING MAFKURAVIY MUNOSABATLAR TIZIMIDAGI O'RNI	21-35
Seytalieva Nurzada Tugolbekovna	MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MILLIY MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY ONGGA TA'SIRI	36-45
Usmonov Saidikromxo'ja Saidalieвич	KIBERZO'ROVONLIK VA KIBERBULLINGNING IJTIMOY VOQELIK SIFATIDAGI MOHIYATI	46-56

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Seytaxmedova Natalya Lvovna	DINIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA YOSHLARNING MA'NAVİY-AXLOQIY QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	57-65
Qurbonova Lola Abdixodimovna	JAMIYAT TARAQQIYOTIDA ELITAR TARBIYANING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING INTELLEKTUAL ELITA SHAKLLANISHIDAGI ROLI	66-76
Xidirov Mustafo Toyirqulovich	ZAMONAVIY FAN TARAQQIYOTIDA BILIM VA FAOLIYATNING O'ZGARUVCHANLIGI VA DAVR RUHI BILAN INTEGRATSIYASI	77-86

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Oni Maykl Olatunji	SARTR GUMANIZMI AFRIKADA MADANIY IDEALLAR TRANSFORMATSIYASI UCHUN IMPERATIV SIFATIDA	87-98
Mayliyev Azamat Farxod o'g'li	STRATEGIK TAFAKKUR VA IJTIMOY MAS'ULIYATNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI	99-109

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Ademola, Julius Olajide	GERASALIK JIN CHALINGAN KISHINING SHIFO TOPISHI GERMENEVTIKASI: CHRIST APOSTOLIC CHURCH, IBADAN, NIGERIYA MISOLIDA	110-122
Akinnavo Yetunde Abolaji, Deji Isaac Ayegboyin	NIGERIYADAGI AFRIKA PENTEKOSTALIZMIDA IDENTIFIKATSIYANING MA'NAVİY GRAMMATIKASI	123-136
Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich	HARBIY XIZMATCHILAR MA'NAVİY DUNYOQARASHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRINING IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI	137-149
Tulyayev Avazbek Ilhomovich	SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY JAMIYAT AXLOQIY ONGGINING TRANSFORMATSIYASI	150-160

Ganjiyev Shuxratjon Jurayevich

O'zMU huzuridagi harbiy tayyorgarlik markazi o'qituvchisi

jivevshuxrat76@gmail.com

(Toshkent, O'zbekistan)

HARBIY XIZMATCHILAR MA'NAVIY DUNYOQARASHIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRINING IJTIMOIIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashida milliy qadriyatlar vatanparvarlik, fidoyilik va burchga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-ma'naviy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar harbiy xizmatchilarning mafkuraviy barqarorligini ta'minlash va ularning ijtimoiy faolligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq global ommaviy madaniyat ta'siri ayrim holatlarda milliy ma'naviy qadriyatlarning zaiflashuvi va yot g'oyalarga moyillikning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois ushbu maqolada harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashida milliy qadriyatlar va global ommaviy madaniyat ta'sirining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, milliy qadriyat, globallashuv, ommaviy madaniyat, ma'naviy dunyoqarash, mafkuraviy immunitet, vatanparvarlik, ijtimoiy-falsafiy tahlil, ma'naviy tarbiya, global ta'sir.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari jahon miqyosida ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarning mazmunan o'zgarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida turli madaniy va mafkuraviy ta'sirlar inson ongi va dunyoqarashiga bevosita kirib bormoqda. Bunday sharoitda harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi, urf-odatlar va axloqiy tamoyillarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar harbiy xizmatchilarda Vatanga sadoqat, burchga mas'uliyat, jasorat va fidoyilik kabi fazilatlarni qaror toptirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar jamiyat ma'naviy xavfsizligini

ta'minlash va yosh avlodni turli yot g'oyalar ta'siridan asrashda muhim ijtimoiy-falsafiy asos vazifasini bajarmoqda. Zamonaviy global ommaviy madaniyat ta'siri esa ayrim holatlarda milliy ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanishiga, individualizm va befarqlik kayfiyatining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, internet tarmoqlari va virtual axborot makonida tarqalayotgan turli destruktiv g'oyalar harbiy xizmatchilar ongi va ma'naviy muhitiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalasini dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammoga aylantirmoqda. Jahonning turli mamlakatlarida harbiy xizmatchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy g'oya va vatanparvarlikni kuchaytirish, global axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda milliy qadriyatlarni harbiy muhitga samarali tatbiq etish, ma'naviy tarbiyaning zamonaviy usullarini ishlab chiqish hamda global madaniy ta'sirlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashida milliy qadriyatlar va global ommaviy madaniyat ta'sirining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Maqolada milliy qadriyatlarning harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berish, global ommaviy madaniyat ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy omillarini yoritish vazifalari bayon etilgan. **MATERIALLAR VA METODLAR**

Milliy qadriyatlar har qanday jamiyatning ma'naviy tayanchi sifatida inson ongi va dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar ma'naviy muhitida vatanparvarlik, burchga sadoqat, jasorat va fidoyilik kabi fazilatlar milliy qadriyatlar asosida qaror topadi. Sharq mutafakkirlari inson ma'naviy kamoloti va jamiyat barqarorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni alohida ta'kidlagan bo'lib, Abu Nasr Forobiy fozil jamiyat taraqqiyoti inson axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas ekanligini asoslab bergan [Forobiy, 1993, 45-b.]. Bu qarashlar harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasida milliy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. G'arb olimlarining globallashtirish va ommaviy madaniyatga oid yondashuvlarida esa madaniy ta'sirlar natijasida milliy identiklikning o'zgarishi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. S. Xantington global jarayonlar sharoitida sivilizatsiyalar o'rtasidagi madaniy qarama-qarshiliklar kuchayishini ta'kidlab, milliy qadriyatlarni saqlash jamiyat barqarorligining muhim omili ekanligini qayd etgan [Xantington, 2003, 57-b.]. E. Toffler axborotlashgan jamiyat sharoitida inson ongiga axborot ta'sirining ortishi ma'naviy muhitga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishini asoslagan [Toffler, 2002, 81-b.]. Ushbu yondashuvlar harbiy xizmatchilar ongida global ommaviy madaniyat ta'sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Rus olimlarining ijtimoiy ong va ma'naviy tarbiyaga oid tadqiqotlarida inson tafakkurining ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda shakllanishi masalasiga keng o'rin berilgan. A.G. Spirkin inson ongi ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy muhit ta'sirida rivojlanishini ta'kidlab, ma'naviy qadriyatlarning shaxs kamolotiga

ta'sirini ochib bergan [Spirkin, 1988, b 112]. V.S. Barulin esa ijtimoiy falsafa doirasida qadriyatlarni jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholagan [Barulin, 1997, b 96]. Bu fikrlar harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashida milliy va global ta'sirlar o'rtasidagi munosabatlarni qiyosiy tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek olimlarining milliy g'oya va ma'naviyatga oid qarashlarida milliy qadriyatlarni asrash hamda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi ustuvor ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. A. Erkayev milliy ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholab, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilishini asoslab bergan [Erkayev, 2009, b 64]. M. Qirg'izboyev milliy g'oya va ma'naviy tarbiyaning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tahlil qilib, milliy qadriyatlar yoshlarda vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishini ta'kidlagan [Qirg'izboyev, 2018, b 71]. Mazkur yondashuvlar milliy qadriyatlar va global ommaviy madaniyat ta'sirini tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlilik va ijtimoiy-falsafiy mushohada asosida o'rganish imkonini berdi. Shu asosda harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashida milliy qadriyatlarning barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatidagi ahamiyati hamda global ommaviy madaniyat ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Maqolada milliy qadriyatlar va global ommaviy madaniyat ta'sirining harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashidagi o'rnini ochib berishda tarixiylik metodidan foydalanilgan. Ushbu metod orqali milliy qadriyatlarning shakllanish bosqichlari, ularning jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyati hamda harbiy muhitda vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularini qaror toptirishdagi o'rnini tahlil qilingan. Tarixiy yondashuv milliy qadriyatlarning uzluksiz ma'naviy meros sifatida saqlanib kelayotganligini asoslash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil metodi asosida milliy qadriyatlar va global ommaviy madaniyatning harbiy xizmatchilar ongiga ta'siri o'zaro taqqoslandi. Mazkur metod yordamida milliy qadriyatlarning ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy tarbiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyati hamda global ommaviy madaniyatning ayrim salbiy ta'sirlari ochib berildi. Qiyosiy tahlil milliy va global ta'sirlar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Tizimlilik metodi orqali harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, siyosiy, axborot va madaniy omillar o'zaro bog'liq holda tahlil qilingan. Ushbu yondashuv milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikning yagona tizim sifatida faoliyat yuritishini ochib berish imkonini berdi. Shuningdek, tizimli tahlil harbiy muhitda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini kengroq anglashga xizmat qiladi. Ijtimoiy-falsafiy mushohada metodi asosida inson ongi, ma'naviy muhit va globallashuv jarayonlari o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilingan. Mazkur metod milliy qadriyatlarning inson dunyoqarashi va ijtimoiy ong shakllanishidagi ahamiyatini falsafiy jihatdan yoritish imkonini berdi. Shu bilan birga, global ommaviy madaniyat ta'sirining shaxs ma'naviyatiga ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan baholandi. Tahlil va sintez metodlari yordamida milliy qadriyatlar, ommaviy madaniyat, ma'naviy tarbiya va mafkuraviy immunitet tushunchalarining mazmuni ilmiy jihatdan

umumlashtirildi. Ushbu metodlar orqali turli manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar bir tizimga keltirilib, harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy omillar yoritilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har qanday jamiyatda milliy qadriyatlar inson ma'naviy dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar faoliyatida milliy qadriyatlar nafaqat axloqiy tarbiya vositasi, balki Vatan xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy kuch sifatida ham namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar asosida shakllangan ma'naviy muhit harbiy xizmatchilarda burchga sadoqat, jasorat, intizom va jamoaviy mas'uliyat kabi fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, milliy qadriyatlar harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashining ichki tayanchi sifatida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [Erkayev, 2009, b 64]. Sharq mutafakkirlari inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotini ma'naviy tarbiya bilan bog'liq holda talqin qilganlar. Abu Nasr Forobiy fozil jamiyatning asosiy belgisi sifatida axloqiy yetuklik va ma'naviy barkamollikni ko'rsatib, inson ma'naviyati jamiyat barqarorligining muhim sharti ekanligini chuqur falsafiy asoslab bergan [Forobiy, 1993, b 45]. Uning qarashlarida inson faqat jismoniy kuch yoki moddiy manfaat bilan emas, balki ma'naviy fazilatlar orqali komillikka erishishi ta'kidlangan. Bu g'oyalar harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasi uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, harbiy muhitda jasorat va intizom bilan bir qatorda yuksak axloqiy fazilatlar ham ustuvor ahamiyat kasb etishini anglatadi. Forobiyning qarashlari bugungi globallashuv sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda milliy ma'naviyatni mustahkamlashning muhim nazariy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. G'arb olimlaridan S. Xantington milliy va sivilizatsion identiklik masalasiga alohida e'tibor qaratib, globallashuv jarayonida madaniy qarama-qarshiliklar kuchayishini ta'kidlagan [Xantington, 2003, b 57]. Uning fikricha, milliy qadriyatlarni saqlab qolish jamiyat ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Bu qarash harbiy xizmatchilar ma'naviy muhiti uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki tashqi axborot ta'sirlarining ortishi harbiy ongda mafkuraviy barqarorlikni talab etadi. Ammo Xantington yondashuvida sivilizatsiyalar o'rtasidagi munosabatlar asosan ziddiyat nuqtai nazaridan baholangan bo'lib, madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlik va ma'naviy uyg'unlik masalasi cheklangan tarzda yoritilgan. Shu sababli uning nazariyasi ba'zi holatlarda ijtimoiy munosabatlarni bir tomonlama talqin qilishga olib kelishi mumkin. Rus olimlaridan A.G. Spirkin inson ongining shakllanishida ijtimoiy muhit va ma'naviy omillarning o'rniga alohida e'tibor qaratgan [Spirkin, 1988, b 112]. U inson tafakkuri jamiyatdagi qadriyatlar tizimi orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashida milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega. Biroq Spirkin qarashlarida milliy qadriyatlarning o'ziga xos etnomadaniy xususiyatlari yetarli darajada ochib berilmaganligi sababli uning yondashuvi umumiy ijtimoiy-falsafiy doira bilan cheklanib qoladi. O'zbek olimlari milliy qadriyatlarni jamiyat ma'naviy barqarorligining muhim omili sifatida baholaganlar. A. Erkayev milliy

ma'naviyatni insonning ijtimoiy faolligi va milliy o'zligini saqlashda muhim vosita sifatida tahlil qilgan. Uning fikricha, milliy qadriyatlar yoshlarda vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlaydi [Erkayev, 2009, b 64]. Bu yondashuv harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda milliy qadriyatlar faqat an'anaviy tarbiya vositasi sifatida talqin qilinib, ularning raqamli madaniyat va global axborot muhiti bilan bog'liq zamonaviy jihatlari kamroq yoritilganligi kuzatiladi. Bu esa milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uyg'un holda tadqiq etish zarurligini namoyon etadi.

Vatanparvarlik va burchga sadoqat harbiy xizmatchilar faoliyatining ma'naviy negizini tashkil etuvchi muhim tushunchalar hisoblanadi. Ushbu fazilatlar harbiy xizmatchilarda nafaqat kasbiy mas'uliyatni, balki milliy o'zlikni anglash, xalq va Vatan oldidagi javobgarlik tuyg'usini ham shakllantiradi. Milliy qadriyatlar asosida qaror topgan vatanparvarlik tuyg'usi harbiy xizmatchilarning ma'naviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois vatanparvarlik faqat siyosiy yoki huquqiy tushuncha emas, balki inson ma'naviyati bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi [Jy'raev, 2017, b 54]. Rus faylasufi I.A. Ilyin Vatanga muhabbatni inson ma'naviy kamolotining muhim belgisi sifatida baholab, uni millatning tarixiy xotirasi va ma'naviy birligi bilan bog'lagan [Ilyin, 1993, b 87]. Uning fikricha, vatanparvarlik insonning ichki e'tiqodi va ma'naviy mas'uliyati orqali shakllanadi. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki harbiy muhitda burchga sadoqat faqat tashqi intizom bilan emas, balki ichki ma'naviy ishonch bilan mustahkamlanadi. Biroq Ilyin qarashlarida vatanparvarlik ko'proq milliy ruhiy birlik nuqtai nazaridan talqin qilingan bo'lib, zamonaviy global axborot ta'sirlarining inson ongiga ko'rsatayotgan ta'siri yetarli darajada tahlil etilmagan. Erich Fromm insonning Vatan va jamiyatga munosabatini ijtimoiy muhit va axloqiy ong bilan bog'liq holda tahlil qilgan [Fromm, 2006, b 103]. Uning fikricha, haqiqiy vatanparvarlik insonning jamiyat oldidagi mas'uliyati va ma'naviy erkinligi bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Fromm qarashlari harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki u insonning ichki axloqiy ehtiyojlari va ijtimoiy burchi o'rtasidagi munosabatni ochib beradi. Ammo Fromm yondashuvida milliy qadriyatlarning harbiy muhitdagi amaliy ahamiyatidan ko'ra, insonning umumiy gumanistik mohiyatiga ko'proq e'tibor qaratilganligi kuzatiladi. O'zbek olimlaridan S. O'tamuratov milliy g'oya va vatanparvarlik tushunchalarini jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim ma'naviy omil sifatida baholagan [O'tamuratov, 2016, b 69.]. Uning fikricha, milliy qadriyatlar asosida shakllangan vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik mas'uliyati va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini kuchaytiradi. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasi uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki harbiy faoliyatda shaxsiy manfaatdan ko'ra jamoaviy va milliy manfaatlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda vatanparvarlik tushunchasi asosan an'anaviy tarbiya nuqtai nazaridan yoritilib, uning raqamli axborot makonidagi transformatsiyasi kamroq tahlil qilinganligi kuzatiladi. G'arb olimlaridan Benedikt Anderson millat va milliy birlik tushunchalarini "tasavvur

qilingan jamoa” konsepsiyasi orqali izohlagan [Anderson, 2001, b 41]. Uning fikricha, millat insonlarni yagona ma’naviy va madaniy makonga birlashtiruvchi ijtimoiy hodisadir. Bu qarash harbiy xizmatchilarda milliy birlik va jamoaviy mas’uliyat tuyg’usini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq Anderson yondashuvida milliy qadriyatlarning axloqiy va tarbiyaviy jihatlari emas, balki ijtimoiy-konstruktiv xususiyatlari ustuvor o‘rin egallaganligi sababli, uning nazariyasi ma’naviy tarbiyaning ichki psixologik omillarini to‘liq ochib bermaydi.

Globallashuv jarayonlari jahon axborot makonining kengayishi va madaniy aloqalarning kuchayishiga olib keldi. Bu jarayon ommaviy madaniyatning turli jamiyatlar hayotiga tez sur’atlarda kirib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar va virtual kommunikatsiya vositalari orqali tarqalayotgan axborot oqimlari yoshlar ongi va dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday ta’sirlar harbiy xizmatchilar ma’naviy muhitida ham namoyon bo‘lib, milliy qadriyatlar va zamonaviy global tendensiyalar o‘rtasida muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda [Castells, 2004, b 91]. Manuel Castells axborot jamiyati nazariyasida zamonaviy inson hayoti axborot tarmoqlari orqali boshqarilayotganini ta’kidlab, virtual makon inson ongi va ijtimoiy munosabatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatishini asoslagan [Castells, 2004, b 91]. Uning fikricha, axborot oqimlarining cheksizligi inson dunyoqarashida yangi madaniy ehtiyoj va qadriyatlarni shakllantiradi. Bu g‘oya harbiy xizmatchilar ma’naviy muhitini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy harbiy xizmatchi ham global axborot makoni ta’sirida yashaydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilinayotgan yengil hayot tarzi, individualizm va iste’molchilik g‘oyalari ayrim holatlarda harbiy intizom va jamoaviy mas’uliyat tamoyillariga zid kelishi mumkin. Biroq Castells qarashlarida milliy ma’naviy immunitet masalasiga yetarlicha e’tibor berilmaganligi kuzatiladi. Fransuz mutafakkiri Jan Bodriyar ommaviy madaniyatni “simulakrlar dunyosi” sifatida baholab, zamonaviy jamiyatda haqiqiy qadriyatlar o‘rnini sun’iy obrazlar egallayotganini ta’kidlagan [Baudrillard, 2006, b 118]. Uning fikricha, ommaviy axborot vositalari inson ongida reallikni emas, balki uning sun’iy ko‘rinishini shakllantiradi. Bu holat harbiy xizmatchilar ma’naviy dunyoqarashi uchun ham muayyan xavf tug‘dirishi mumkin, chunki virtual muhitdagi soxta qahramonlik yoki yengil hayot tarzi haqidagi tasavvurlar haqiqiy burch va mas’uliyat tushunchalarini zaiflashtirishi ehtimoldan xoli emas. Masalan, ayrim internet platformalarida harbiy xizmat mazmunidan ko‘ra tashqi obraz va shou elementlarining ko‘proq targ‘ib qilinishi ma’naviy qadriyatlarning mazmungan o‘zgarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, Bodriyar qarashlarida ommaviy madaniyatning ijobiy axborot va kommunikatsion imkoniyatlari kamroq yoritilganligi seziladi. O‘zbek olimlaridan Sh. Pahruhdinov globallashuv jarayonida axborot xavfsizligi va ma’naviy barqarorlik masalasiga alohida e’tibor qaratgan [Paxrutdinov, 2015, b 73]. Uning fikricha, ommaviy madaniyat ta’siri milliy qadriyatlarga befarqlikni kuchaytirishi va yoshlarda mafkuraviy bo‘shliqni yuzaga keltirishi mumkin. Bu fikr harbiy xizmatchilar ma’naviy muhiti uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki ma’naviy bo‘shliq tashqi g‘oyaviy ta’sirlarga moyillikni kuchaytiradi. Masalan, ayrim xorijiy mediamaxsulotlarda zo‘ravonlik, shafqatsizlik yoki axloqiy erkinlikning

mutlaqlashtirilishi harbiy xizmatchilar ongida milliy axloqiy mezonlarga nisbatan ikkilanishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, Pahrudinov qarashlarida global madaniyatning ta'limiy va innovatsion jihatlariga nisbatan tanqidiy yondashuv ustuvorligi kuzatiladi. Anthony Giddens globallashuvni madaniy va ijtimoiy munosabatlarning o'zaro bog'liqlik jarayoni sifatida baholab, uning ham ijobiy, ham salbiy jihatlarini mavjudligini ta'kidlagan [Giddens, 2002, b 64]. Uning fikricha, global axborot aloqalari insonlarning bilim va tafakkur doirasini kengaytirishi mumkin. Bu qarash harbiy xizmatchilar faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy harbiy tizim axborot texnologiyalari va xalqaro tajribalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Masalan, raqamli texnologiyalar orqali harbiy ta'lim tizimida yangi bilim va ko'nikmalarni egallash imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq global axborot oqimlarining nazoratsizligi ma'naviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy axborot makonining kengayishi inson hayotining barcha sohalarini qatori harbiy muhitga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar va raqamli kommunikatsiya vositalari axborot almashinuvini tezlashtirish bilan birga inson ongi va dunyoqarashiga ham kuchli ta'sir etuvchi omilga aylandi. Ayniqsa, virtual madaniyat orqali tarqalayotgan turli g'oyalar, obrazlar va axborotlar harbiy xizmatchilar ma'naviy muhitida muayyan ijtimoiy-psixologik o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu jarayon bir tomondan bilim va axborot imkoniyatlarini kengaytirsada, ikkinchi tomondan ma'naviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ham yuzaga keltirmoqda [McLuhan, 2003, b 74]. Marshall McLuhan axborot vositalari inson tafakkuri va jamiyat hayotini o'zgartiruvchi asosiy kuchga aylanganini ta'kidlab, "global qishloq" konsepsiyasini ilgari surgan [McLuhan, 2003, b 74]. Uning fikricha, elektron axborot vositalari orqali insonlar o'rtasidagi masofa qisqaradi va dunyo yagona axborot makoniga aylanadi. Bu g'oya harbiy xizmatchilar faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy harbiy tizim axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Masalan, raqamli platformalar orqali harbiy ta'lim, strategik ma'lumot almashinuvi va tezkor kommunikatsiya imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq McLuhan qarashlarida axborot makonining inson ma'naviyatiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy psixologik ta'sirlari kamroq yoritilganligi kuzatiladi. Alvin Toffler axborot sivilizatsiyasi sharoitida inson ongiga ta'sir ko'rsatuvchi axborot oqimlarining ortishi "axborot zarbasi"ni keltirib chiqarishini ta'kidlagan [Toffler, 1998, b 96]. Uning fikricha, axborot hajmining haddan tashqari ortishi insonda ruhiy bosim, beqarorlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat harbiy xizmatchilar ma'naviy muhiti uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki harbiy xizmat intizom, barqaror ruhiy holat va aniq axloqiy mezonlarni talab qiladi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan feyk axborotlar, destruktiv chaqiriqlar yoki zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlar harbiy xizmatchilar ongida ikkilanish va psixologik bosimlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, Toffler qarashlarida milliy ma'naviy tarbiyaning himoya mexanizmi sifatidagi o'rniga nisbatan kamroq e'tibor berilgan. O'zbek olimlaridan F. Musaev axborot

xavfsizligi va ma'naviy muhit masalalarini tahlil qilib, virtual madaniyat ta'sirida yoshlar dunyoqarashida muayyan qadriyat o'zgarishlari yuz berayotganligini ta'kidlagan [Musaev, 2019, b 58.]. Uning fikricha, axborot makonida milliy qadriyatlarga zid bo'lgan g'oyalarning keng tarqalishi yoshlarda ma'naviy befarqlik va madaniy uzilish holatlarini kuchaytirishi mumkin. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega, chunki ma'naviy bo'shliq tashqi mafkuraviy ta'sirlarga moyillikni oshiradi. Masalan, ayrim virtual platformalarda intizomsizlik, yengil hayot tarzi va agressiv xatti-harakatlarning targ'ib qilinishi harbiy muhitdagi axloqiy tamoyillarga zid kelishi mumkin. Biroq Musaev qarashlarida virtual madaniyatning ta'limiy va innovatsion imkoniyatlari yetarlicha keng yoritilmaganligi kuzatiladi. Nemis faylasufi Yurgen Xabermas axborot va kommunikatsiya jarayonlarini jamoatchilik ongini shakllantiruvchi muhim omil sifatida baholagan [Habermas, 2001, b 82]. Uning fikricha, kommunikatsiya jarayoni insonlar o'rtasida ijtimoiy hamjihatlik va o'zaro tushunish muhitini yaratadi. Bu qarash harbiy xizmatchilar ma'naviy muhiti uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki jamoaviy birlik va o'zaro ishonch harbiy faoliyatning asosiy shartlaridan biridir. Masalan, raqamli axborot texnologiyalari orqali harbiy xizmatchilarning bilim almashinuvi va ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini samarali tashkil etish imkoniyatlari ortib bormoqda. Shu bilan birga, axborot makonidagi nazoratsizlik va mafkuraviy xurujlar kommunikatsiya jarayonlarining salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari kuchayib borayotgan zamonaviy sharoitda mafkuraviy immunitet masalasi jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar faoliyatida mafkuraviy barqarorlik va ma'naviy qat'iyat davlat xavfsizligi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Milliy qadriyatlar asosida shakllangan ma'naviy muhit harbiy xizmatchilarda tashqi yot g'oyalarga nisbatan tanqidiy munosabat, burchga sadoqat va milliy manfaatlarga daxldorlik tuyg'usini qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, mafkuraviy immunitet insonning faqat siyosiy qarashlari emas, balki uning ma'naviy dunyoqarashi va milliy o'zligi bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi [Erkayev, 2009, b 83]. Amerikalik siyosatshunos Jozef Nay "yumshoq kuch" konsepsiyasi orqali madaniy va axborot ta'sirlari zamonaviy jamiyat hayotida muhim geosiyosiy vositaga aylanganini ta'kidlagan [Nay, 2006, b 44]. Uning fikricha, axborot va madaniy ta'sir orqali inson ongiga bevosita ta'sir ko'rsatish mumkin. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy muhiti uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki tashqi axborot ta'sirlari ba'zan milliy manfaatlarga zid g'oyalarni shakllantirishi mumkin. Masalan, ayrim xorijiy mediamaxsulotlarda milliy an'analardan voz kechish yoki individual manfaatlarni mutlaqlashtirish g'oyalarining targ'ib qilinishi yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq Nay qarashlarida milliy ma'naviy qadriyatlarni muhofaza qilish mexanizmlari emas, asosan tashqi ta'sir texnologiyalari tahlil qilinganligi kuzatiladi. Rus olimi A.S. Panarin globallashuv sharoitida milliy madaniyat va ma'naviyatni saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratib, mafkuraviy barqarorlikni jamiyat xavfsizligining muhim qismi sifatida baholagan [Panarin, 2003, b 71]. Uning fikricha, milliy qadriyatlarning zaiflashuvi jamiyatda ma'naviy

bo'shliq va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki harbiy tizimda intizom va vatanparvarlik tuyg'usi milliy ma'naviy asoslarga tayanadi. Masalan, milliy tarix, qahramonlar va harbiy an'analarga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar harbiy xizmatchilarda milliy g'urur va ma'naviy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Panarin qarashlarida global madaniy aloqalarning ijobiy jihatlari kamroq yoritilganligi kuzatiladi. O'zbek olimlaridan N. Jo'rayev milliy g'oya va ma'naviy tarbiyani jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida baholagan [Jo'rayev, 2017, b 94.]. Uning fikricha, milliy qadriyatlar asosida shakllangan mafkuraviy immunitet yoshlarda Vatan taqdiriga daxldorlik, milliy iftixor va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini kuchaytiradi. Bu qarash harbiy xizmatchilar ma'naviy muhiti uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki harbiy faoliyat yuqori darajadagi ma'naviy barqarorlik va ongli intizomni talab qiladi. Masalan, harbiy ta'lim muassasalarida milliy tarix, ajdodlar merosi va harbiy qahramonlik an'analarga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlarning tashkil etilishi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim tadqiqotlarda mafkuraviy immunitet ko'proq nazariy tushuncha sifatida talqin qilinib, uning raqamli axborot muhitidagi amaliy mexanizmlari yetarlicha ochib berilmaganligi seziladi. Entoni Smit milliy identiklik va etnomadaniy xotira masalalarini tahlil qilib, millat barqarorligi umumiy tarixiy xotira va qadriyatlarga tayanishini ta'kidlagan [Smith, 2004, b 63.]. Uning fikricha, milliy ramzlar, tarixiy xotira va umumiy ma'naviy meros insonlarda jamoaviy birlikni shakllantiradi. Bu g'oya harbiy xizmatchilarda milliy iftixor va Vatanga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, harbiy qasamyod marosimlari, milliy bayramlar va tarixiy qahramonlarni xotirlash tadbirlari jamoaviy ma'naviy birlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Biroq Smit qarashlarida axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy identiklikning raqamli transformatsiyasi yetarlicha tahlil qilinmaganligi kuzatiladi. Zamonaviy globallashuv jarayonlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlarni yangicha mazmunda talqin qilishni talab etmoqda. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar ma'naviy muhitida milliy an'analarga sodiqlik bilan bir qatorda umuminsoniy axloqiy tamoyillarga tayanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki harbiy faoliyat faqat milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan cheklanib qolmasdan, insonparvarlik, tinchliksevarlik va jamiyat barqarorligini muhofaza qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi. Shu jihatdan qaralganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi harbiy xizmatchilar ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy omil sifatida namoyon bo'ladi [Karimov, 2008, b 97.]. Nemis faylasufi Immanuel Kant insonni oliy qadriyat sifatida baholab, axloqiy burch va mas'uliyat g'oyasini ilgari surgan [Kant, 1999, b 118]. Uning fikricha, inson har qanday faoliyatda umumiy axloqiy qonunlarga amal qilishi lozim. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki harbiy xizmatda intizom va burchga sadoqat nafaqat huquqiy talab, balki axloqiy mas'uliyat sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, tinch aholini himoya qilish, inson huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish va harbiy etikaga rioya qilish kabi tamoyillar

umuminsoniy qadriyatlarning amaliy ifodasi hisoblanadi. Biroq Kant qarashlarida milliy madaniy xususiyatlar va etnomadaniy qadriyatlar masalasi kamroq yoritilganligi kuzatiladi. Sharq mutafakkiri Alisher Navoiy insonparvarlik, adolat va ma'naviy kamolot g'oyalarini jamiyat taraqqiyotining asosiy mezon sifatida baholagan [Navoiy, 2001, b 56]. Uning fikricha, insonning haqiqiy kamoloti axloqiy poklik, ezgulik va jamoat manfaatiga xizmat qilish orqali namoyon bo'ladi. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy muhiti uchun muhim ahamiyatga ega, chunki harbiy faoliyatda jasorat bilan bir qatorda insoniylik va bag'rikenglik fazilatlari ham muhim o'rin tutadi. Masalan, favqulodda vaziyatlarda aholiga yordam berish yoki tinchlikparvarlik missiyalarida ishtirok etish harbiy xizmatchilarning nafaqat kasbiy, balki umuminsoniy burchini ham namoyon etadi. Navoiy qarashlarining ahamiyati shundaki, u milliy ma'naviyat va umuminsoniy qadriyatlarni bir-biridan ajralmas hodisa sifatida talqin qiladi. Rus faylasufi N.A. Berdyaev inson erkinligi va ma'naviy mas'uliyat masalasiga alohida e'tibor qaratgan [Berdyaev, 1994, b 73]. Uning fikricha, ma'naviy barqarorlik insonning ichki axloqiy e'tiqodi va ma'naviy ozodligi bilan bog'liq. Bu yondashuv harbiy xizmatchilar ma'naviy muhitini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki haqiqiy intizom faqat tashqi nazorat emas, balki ichki ma'naviy ishonch orqali mustahkamlanadi. Masalan, harbiy xizmatchilarning qasamyodga sodiqligi yoki burchni vijdonan bajarishi ma'naviy mas'uliyatning amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Biroq Berdyaev qarashlarida milliy davlatchilik va jamoaviy manfaatlar masalasiga nisbatan individual erkinlik g'oyasi ustuvor qo'yilganligi kuzatiladi. O'zbek olimlaridan I. Yusupov milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholagan [Yusupov, 2020, b 84]. Uning fikricha, milliy qadriyatlarga tayangan holda umuminsoniy tamoyillarni anglash yoshlarda ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi. Bu g'oya harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasi uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki harbiy muhitda milliy manfaatlarga sodiqlik bilan bir qatorda insoniylik, bag'rikenglik va adolat tamoyillari ham muhim o'rin tutadi. Masalan, harbiy ta'lim jarayonida milliy tarix va ma'naviyat bilan birga xalqaro gumanitar huquq asoslarining o'qitilishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda ushbu uyg'unlikning raqamli madaniyat va virtual axborot muhitidagi namoyon bo'lish shakllari yetarlicha keng tahlil qilinmaganligi seziladi.

XULOSA

Harbiy xizmatchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadriyatlar muhim ijtimoiy-falsafiy asos sifatida namoyon bo'lib, ularda vatanparvarlik, burchga sadoqat, jasorat va ma'naviy mas'uliyat kabi fazilatlarni qaror toptirishga xizmat qilishi asoslandi. Tadqiqot jarayonida Sharq va G'arb mutafakkirlarining milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya va globallashtirishga oid qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, milliy ma'naviyatni saqlash jamiyat barqarorligi va mafkuraviy xavfsizlikning muhim sharti ekanligi ochib berildi. Global ommaviy madaniyat va virtual axborot makonining kengayishi harbiy xizmatchilar ongi va ma'naviy muhitiga kuchli ta'sir ko'rsatayotganligi, ayniqsa axborot hujumlari,

individualizm va iste'molchilik g'oyalari ma'naviy qadriyatlarga nisbatan befarqlikni kuchaytirishi mumkinligi aniqlandi. Axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiya vositalari harbiy ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, ularning nazoratsizligi mafkuraviy tahdidlar va ma'naviy beqarorlik xavfini ham yuzaga keltirishi mumkinligi asoslandi. Milliy qadriyatlar asosida shakllangan mafkuraviy immunitet harbiy xizmatchilarni yot g'oyalar va destruktiv axborot ta'sirlaridan muhofaza qilishning muhim omili sifatida baholanib, milliy tarix, ma'naviy meros va harbiy an'analar ushbu jarayonning asosiy tarbiyaviy manbalari ekanligi yoritildi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi harbiy xizmatchilar ma'naviy barqarorligini ta'minlashning muhim sharti ekanligi, insonparvarlik, adolat, bag'rikenglik va milliy manfaatlarga sadoqat tamoyillarining o'zaro birligi ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishi ko'rsatib berildi. Tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilar ma'naviy tarbiyasida milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy axborot muhiti va global madaniy ta'sirlarning ijobiy jihatlaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Milliy qadriyatlar va global ta'sirlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash harbiy xizmatchilarda ma'naviy barqarorlik, mafkuraviy immunitet va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashning muhim sharti ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslab berildi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Forobiy A. (1993). Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 320 b.
2. Xantington S. (2023). Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va jahon tartibining qayta qurilishi. – Toshkent: Noshir, 603 b.
3. Тоффлер Э. (1998). Учинчи тўлқин. – Тошкент: Фан, 784 б.
4. Спиркин А.Г. (1988). Сознание и самосознание. – Москва: Политиздат, 303 б.
5. Барулин В.С. (1997). Социальная философия. – Москва: ФАИР, 560 б.
6. Эркаев А. (2009). Маънавият ва тараққиёт модели. – Тошкент: Маънавият, 174 б.
7. Қирғизбоев М. (2018). Миллий ғоя ва маънавий тараққиёт. – Тошкент: Tafakkur, 240 б.
8. Жўраев Н. (2017). Миллий ғоя ва маънавий тараққиёт. – Тошкент: Маънавият, 256 б.
9. Ильин И.А. (1993). Путь к очевидности. – Москва: Республика, 431 б.
10. Фромм Э. (2006). Человек для самого себя. – Москва: АСТ, 571 б.
11. Отамуратов С. (2016). Миллий ғоя ва ватанпарварлик тарбияси. – Тошкент: Tafakkur, 224 б.
12. Андерсон Б. (2001). Воображаемые сообщества. – Москва: Канон-Пресс, 288 б.
13. Кастельс М. (2004). Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – Москва: ГУ ВШЭ, 608 б.

14. Бодрийяр Ж. (2006). Общество потребления. – Москва: Республика, 269 б.
15. Пахрутдинов Ш. (2015). Тахдид ва баркарорлик. – Тошкент: Tafakkur, 224 б.
16. Гидденс Э. (2002). Ускользящий мир: как глобализация меняет нашу жизнь. – Москва: Весь мир, 304 б.
17. Маклюэн М. (2003). Понимание медиа: внешние расширения человека. – Москва: Канон-Пресс, 464 б.
18. Мусаев Ф. (2019). Ахборот хавфсизлиги ва маънавий мухит. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 192 б.
19. Хабермас Ю. (2001). Моральное сознание и коммуникативное действие. – Санкт-Петербург: Наука, 380 б.
20. Най Ж. (2006). Гибкая власть. – Москва: Тренды, 397 б.
21. Панарин А.С. (2003). Искушение глобализмом. – Москва: Эксмо, 544 б.
22. Жўраев Н. (2017). Миллий ғоя ва маънавий тараккиёт. – Тошкент: Маънавият, 256 б.
23. Смит Э. (2004). Национальная идентичность. – Москва: Республика, 352 б.
24. Каримов И.А. (2008). Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 176 б.
25. Кант И. (1999). Критика практического разума. – Москва: Мысль, 655 б.
26. Навоий А. (2001). Махбуб ул-кулуб. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт, 352 б.
27. Бердяев Н.А. (1994). Философия свободы. – Москва: Республика, 415 б.
28. Юсупов И. (2020). Миллий ва умуминсоний кадриятлар диалектикаси. – Тошкент: Akademnashr, 288 б.

Ганжиев Шухратжон Жураевич

преподаватель военного учебного центра

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

e-mail: jivevshuxrat76@gmail.com

(Ташкент, Узбекистан)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ГЛОБАЛЬНОЙ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В духовном мировоззрении военнослужащих национальные ценности проявляются как важный социально-духовный фактор, формирующий такие качества, как патриотизм, самоотверженность и верность воинскому долгу. В условиях современной глобализации национальные ценности приобретают важное значение в обеспечении

идеологической устойчивости военнослужащих и укреплении их социальной активности. Однако влияние глобальной массовой культуры в отдельных случаях становится причиной ослабления национально-духовных ценностей и усиления склонности к чуждым идеям. В связи с этим в данной статье предпринята попытка раскрыть социально-философские особенности влияния национальных ценностей и глобальной массовой культуры на духовное мировоззрение военнослужащих.

Ключевые слова: военнослужащий, национальные ценности, глобализация, массовая культура, духовное мировоззрение, идеологический иммунитет, патриотизм, социально-философский анализ, духовное воспитание, глобальное влияние.

Ganjiyev Shukhratjon Juraevich

Lecturer at the Military Training Center

National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

e-mail: jivevshuxrat76@gmail.com

(Tashkent, Uzbekistan)

SOCIO-PHILOSOPHICAL FEATURES OF THE INFLUENCE OF NATIONAL VALUES AND GLOBAL MASS CULTURE ON THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF MILITARY PERSONNEL

Abstract. In the spiritual worldview of military personnel, national values are manifested as an important socio-spiritual factor shaping such qualities as patriotism, devotion, and loyalty to military duty. In the context of modern globalization, national values play a significant role in ensuring the ideological stability of military personnel and strengthening their social activity. However, the influence of global mass culture in some cases leads to the weakening of national spiritual values and an increased inclination toward alien ideas. Therefore, this article attempts to reveal the socio-philosophical features of the influence of national values and global mass culture on the spiritual worldview of military personnel.

Keywords: military personnel, national values, globalization, mass culture, spiritual worldview, ideological immunity, patriotism, socio-philosophical analysis, spiritual education, global influence.